

## MATN BILAN ISHLASH ORQALI KREATIV TAFAKKURNI RIVOJLANTIRISHNING O'ZIGA XOSLIGI

**Kunduz Irisbayeva Mamadinovna**

*Toshkent Kimyo xalqaro universiteti Namangan filiali katta o'qituvchisi.*

**Ziyovuddinova Dilshodaxon Qodirjon qizi**

**Abduraximova Oydina Boymirza qizi**

*Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi 4-kurs talabasi*

**Annotatsiya:** *Maqolada boshlang'ich ta'lim o'quvchilarining dars jarayonida Matn bilan ishlash orqali kreativ tafakkurni rivojlantirishning o'ziga jihatlari yoritib berilgan.*

**АННОТАЦИЯ:** *В статье освещены особенности развития креативного мышления учащихся начальных классов в процессе работы с текстом на уроках.*

**Annotation:** *The article highlights the specific aspects of developing creative thinking in primary school students through working with texts during the learning process.*

Yaxshi va sifatli ta'lim, ayniqsa, bugungi kunda zaruriy ehtiyojga aylanib bormoqda. Bilimlar poydevorini esa maktab davridayoq mustahkam qurish lozim. Oddiy misol: jamiyatda qaysidir mavqega ega yoki ilm-fan, madaniyat va boshqa sohalarda ma'lum darajaga erishgan inson bor, uning zamirida maktab ta'limining o'rni beqiyos ahamiyatga ega bo'lganini takror va takror ta'kidlaydi. Har bir jamiyatning istiqboli bugun kamol topayotgan bolalar, yoshlar tomonidan bunyod etiladi. Shu sababli yosh avlod tarbiyasini tashkil etish eng muhim ijtimoiy-pedagogik vazifa sanaladi. U qanday zamon, qaysi makon bo'lishidan qat'iy nazar hamisha ushbu vazifaning ijobiy hal qilinishi jamiyatning e'tibor markazida bo'lgan. Shaxsan Prezidentimiz O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimi xodimlariga murojaatlarida: "Maktab – ijodiy va erkin fikrlaydigan, tashabbuskor yoshlar tarbiyasi uchun asosiy muhitga aylanishi lozim." hamda "Yoshlar tafakkurini o'stirish uchun ijodiy o'qitish metodlariga e'tibor kuchaytiriladi."-deya ta'kidlari bu kabi mavzularda yangicha yondoshuvlar lozimligini talab etadi.

O'zbekistonda yosh avlodga ta'lim berish, ularni umuminsoniy qadriyatlar, ilm-fan, texnika, ishlab chiqarish va texnologiyaning rivoji bilan bog'liq ma'naviy-axloqiy talablar, ijtimoiy ehtiyojlar asosida tarbiyalash davlat siyosati darajasida hal etilmoqda. Zero, yosh avlodning kamoloti, u bilan uzviy bog'liq holda jamiyatning ravnaqi ularning ijtimoiy-hayotiy maqsadlari, ustuvor qadriyatlari, oliy darajadagi intilishlari hamda keng dunyoqarash asosida ta'minlanadi.

Boshlang'ich ta'lim sohasida olib borilayotgan tashabbuslar nafaqat o'quvchilarning bilim darajasini balki o'qituvchilarning malakasini oshirishga, sifatli ta'lim tashkil qilishga bundan tashqari seminar-treninglar orqali yangi metodlar bilan tanishishga qaratilgan. Ta'lim jarayonida kreativ fikrlash o'quvchilarga yangi va

original g'oyalarni yaratish, mavjud muammolarga innovatsion yondashuvlar topish, va o'z fikrlarini erkin ifodalash imkoniyatini beradi. Bunday ko'nikmalar o'quvchilarning zamonaviy jamiyatda muvaffaqiyatli bo'lishlari uchun zarurdir, chunki global dunyo o'zgarib borayotgan sharoitda ijodkorlik va yangilikka bo'lgan ehtiyoj ortib bormoqda.

Matn bilan ishlash jarayoni o'quvchilarning o'qish savodxonligini rivojlantirishda, shuningdek, ularning kreativ tafakkurini yuksaltirishda muhim vosita hisoblanadi. O'quvchilar matnni faqat o'qish, balki uning mazmunini tahlil qilish, yangi g'oyalar yaratish va mavjud muammolarga yangicha yondashuvlar qo'llash orqali ijodiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantiradilar. Matn bilan ishlashning o'ziga xosligi shundaki, bu jarayon nafaqat analitik tafakkurni, balki ijodiy tafakkurni rivojlantirishga ham xizmat qiladi. Matnni tahlil qilish va unga kreativ yondashuvni qo'llash, o'quvchilarni yangi g'oyalar yaratishga va ularni ijodiy nuqtai nazardan qayta shakllantirishga undaydi. Ma'lumki, har qanday inson o'z oldida ko'ndalang turgan hayotiy yoki ilmiy muammoni hal etish uchun o'ylanadi, izlanadi, bilganlarini taftish qiladi, zo'riqadi, mashaqqat chekadi. Bu ruhan sog'lom odamga xos bo'lgan tabiiy xususiyat. Ta'lim jarayonida shunday vaziyatga solingan o'quvchi ham ta'limiy muammoni hal qilish orqali bilim olish yo'lida shunday hislarni kechiradi. Zamonaviy tarbiyashunoslikda ta'lim-tarbiyaning oldiga o'quvchini zarur bilimlar yig'indisi bilan ta'minlash doirasidan chiqib, o'quvchi ma'naviyatini shakllantirish, unda bilishga ichki ehtiyoj paydo qilish, mustaqil, mantiqiy, ijodiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish kabi sifat jihatidan yangi talablar qo'yilmoqda. Maktabdan o'quvchi o'z ma'naviy kamolotini ta'minlash uchun mustaqil ravishda kitob o'qish malakasini shakllantirish, bilim olish yolida bor imkoniyatlarini qo'llagan holda ijodkorlik ko'nikmalarini qaror toptirish talab etilmoqda bundan kelib chiqib matn bilan ishlashning kreativ tafakkurni rivojlantirishdagi roli shundan iboratki: matn bilan ishlash jarayonida o'quvchilar nafaqat matnning asosiy mazmunini tushunish, balki matnni tahlil qilish, uning mazmuni va strukturasi yaxshilab o'rganish, turli nuqtai nazarlarni ko'rish va yangi fikrlarni yaratish jarayonlariga kirishadilar. Bu o'quvchilarning kreativ tafakkurini rivojlantirishga imkon yaratadi. O'quvchilar matnni o'qish va uni tahlil qilish orqali quyidagi kreativ tafakkur ko'nikmalarini rivojlantiradilar:

1. Matnni tahlil qilish va strukturani ajratib ko'rish: Matn bilan ishlash o'quvchilarga uning tuzilishini va strukturaviy elementlarini ajratib ko'rish imkonini beradi. Bu tahlil jarayoni o'quvchilarga matnning qanday qurilganligini, asosiy g'oya, qahramonlar, ularning harakatlari, matnning maqsadi va uning asosiy xabarini qanday ko'rsatishni tushunishga yordam beradi. O'quvchilar matnni tahlil qilishda fikrlarni qayta ishlab chiqarish, matnning turli qatlamlarini ajratish va uni o'z nuqtai nazaridan qayta baholashni o'rganadilar. Bu jarayon o'quvchilarni kreativ fikrlashga yo'naltirishda muhim rol o'ynaydi, chunki ularni matnni faqat o'qib chiqish emas, balki uni chuqur tahlil qilish va o'z fikrlarini ishlab chiqishga undaydi.

2. Yangi fikrlar va g'oyalar yaratish: Matn bilan ishlash orqali o'quvchilar yangi g'oyalar yaratish, mavjud fikrlarni yanada chuqurlashtirish va yangi qarorlar qabul qilishni o'rganadilar. Matnni o'qishdan olingan bilimlar asosida o'quvchilar yangi vaziyatlar, g'oyalar va dunyoqarashlar yaratishga harakat qilishadi. Misol uchun, o'quvchilar biror hikoya yoki maqolani o'qib, matnning asosiy g'oyalardan o'zlariga xos yakunlar chiqarishlari, yoki boshqa holatlar bilan bog'lab yangi g'oyalarni shakllantirishlari mumkin. Ushbu ijodiy jarayon o'quvchilarning kreativ tafakkurini mustahkamlashga yordam beradi, chunki ular o'qilgan matnni yangi shakllarda tasavvur qilish, uni o'ziga xos nuqtai nazardan ko'rish va o'zlarini ijodiy tarzda ifoda etish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

3. Fikrlarni va g'oyalarni izohlash va tahlil qilish: Matnni tahlil qilish va uni izohli tarzda o'rganish o'quvchilarga matndan olingan ma'lumotlarni o'z fikrlarida izohlash, taqqoslash va yangi nuqtai nazarlarni yaratish imkonini beradi. Bu jarayon o'quvchilarda nafaqat matnni tushunish, balki uni o'z bilim va tajribasi bilan bog'lash, yangi fikrlarni yaratishda qanday yondashuvni qo'llashni o'rganishga yordam beradi. O'quvchilar matndan olingan bilimlar asosida o'z izohlarini kiritadilar, matnni o'z nuqtai nazaridan tahlil qilishadi va uni amaliyotda qo'llashning yangi usullarini ishlab chiqadilar. Bu ijodiy fikrlashni rivojlantiradigan va o'quvchilarni matndan olingan bilimlarni yangi muammolarga moslashtirishga o'rgatadigan jarayondir.

4. Tanqidiy fikrlash va muhokama: Matn bilan ishlash o'quvchilarga matnni tanqidiy baholash va turli nuqtai nazarlarni qabul qilish imkonini beradi. O'quvchilar matnni o'qib chiqish orqali, uning maqsadini, muallifning niyatini va matnning kuchli hamda zaif tomonlarini tahlil qilishadi. Ular matnning haqiqiylikini, ishonchliligini va samimiyligini sinab ko'rishadi. Tanqidiy fikrlash, o'quvchilarda ijodiy tafakkurni rivojlantirish uchun zarurdir, chunki bu ularni faqat ma'lumotni qabul qilishdan emas, balki uni chuqurroq tahlil qilishga undaydi.

Hulosa qilish mumkinki, ta'limga bunday yondashuv, o'z navbatida, o'quvchini taqlidchilik, ko'chirmachilik, tayyor andozalar, belgilangan qoliplar asosida faoliyat yuritishdan qutqaradi. Shu ma'noda mustaqil, mantiqiy, ilmiy, ijodiy fikrlashga o'rgatish, bu yo'lda uchragan to'siqlarni mustaqil ravishda, unga ijodiy yondashgan holda bartaraf etish garovidir.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. – Toshkent: «O'zbekiston», 2021. – 488 b.
2. Mirziyoyev Sh.M. 2022-yil 26-dekabrda Murojaatnoma
3. Mirziyoyev Sh.M. 2023-yil 20-dekabrda Oliy Majlis va xalq deputatlari Kengashlariga Murojaatnomasi
4. Hasanboeva O.A. Ijodiy tafakkurni rivojlantirish asoslari. – Toshkent: TDPU nashriyoti, 2018. – 57-148 b.

5. To'raqulova G. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining nutqiy va tafakkur faoliyatini rivojlantirish. – Toshkent: “Fan va texnologiya”, 2020. – 116 b.

6. G'ofurova M.N. Boshlang'ich ta'limda innovatsion texnologiyalar. – Toshkent: “Yangi asr avlodi”, 2021. – 132 b.

7. Begmatova G. Matn asosida mantiqiy va ijodiy fikrlashni shakllantirish // “Ta'lim muammolari” jurnali. – 2022. – №3. – B. 44–48.

8. Qurbonova N. Matn bilan ishlash orqali o'quvchilarda mustaqil fikrlashni rivojlantirish // “Pedagogik izlanishlar” jurnali. – 2023. – №1. – B. 29–34.